

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**AVTOMOBIL BENZINI SOTIB
OLISH XARAJATLARINING
BIR QISMI UCHUN OYLIK
PUL KOMPENSATSIYASI
TO'LASH
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi olish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 16 bet.

Mazkur qo'llanma avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash hamda oylik pul kompensatsiyasi to'lovini to'lash tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma tegishli davlat organlari mas'ul xodimlari va aholining keng qatlamlari uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Avtomobil benzini sotib olish xarajatlariga pul kompensatsiyasi olishga doir normativ-huquqiy hujjatlar	3
KIRISH	4
Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash	4
Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini amalga oshirish.....	4
ILOVALAR	4

Avtomobil benzini sotib olish xarajatlariga pul kompensatsiyasi olishga doir normativ-huquqiy hujjatlar

"Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qonun	
"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun	
Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun shaxslarning ayrim toifalariga oylik pul kompensatsiyasi to'lash tartibi to'g'risidagi nizom	

KIRISH

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 52-maqsadi sifatida iqtisodiyot tarmoqlari va **aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlash** belgilangan.

Shuningdek, “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq **energiya iste’molchilariga imtiyozlar** qonunga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 119-son qarori bilan Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun shaxslarning ayrim toifalariga oylik pul kompensatsiyasi to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zgartirishga ko‘ra, oylik pul kompensatsiyasi to‘lovi summasining miqdori 20 litr avtomobil benzini qiymati miqdoriga oshirildi.

Xususan, oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, urush faxriylari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, mehnatda mayib bo‘lish va kasb kasalligi tufayli I va II guruh nogironlar hamda I va II guruh bolalikdan nogironlar egadirlar.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan **Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi olish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma** avtomobil benzini sotib olish xarajatlarining bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi to‘lovini tayinlash, oylik pul kompensatsiyasi to‘lovini amalga oshirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Avtomobil benzini sotib olish xarajatlarning bir qismi uchun oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini olish uchun bu **huquqqa ega bo'lish**, O'zbekiston Respublikasi hududida **doimiy yashash**, yengil avtomobil, motoaravacha yoki mototsiklga **(avtomototransport vositasi) ega bo'lish** va **ulardan foydalanish** talab etiladi.

Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash uchun bunga huquqi bo'lgan shaxs **pensiyalar va nafaqalarni tayinlaydigan organlarga** murojaat qilishlari zarur.

Pensiyalar va nafaqalarni tayinlaydigan organlar – budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Bojxona qo'mitasi organlari (pul kompensatsiyasini tayinlaydigan organ).

Pul kompensatsiyasini tayinlaydigan organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:


ariza;

biometrik pasport yoki ID-karta;

imtiyozga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi guvohnomalar nusxalari (urush qatnashchilari va nogironligi bo'lgan hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar uchun).




Oylik pul kompensatsiyasini to'lash barcha zarur hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda **murojaat qilingan kundan boshlab** hisoblanadi.



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash rad etilgan taqdirda oylik pul kompensatsiyasini tayinlaydigan organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin 3 ish kunida

tegishli qarorni ariza beruvchining qo'liga beradi va ayni bir vaqtda barcha hujjatlarni qaytaradi.

unga rad etish to'g'risida pochta bildirishnomasini jo'natadi (rad etish sabablari ko'rsatilgan holda) va ayni bir vaqtda barcha hujjatlarni qaytaradi.



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlash rad etilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabablar ariza beruvchi tomonidan bartaraf etilgan taqdirda ariza beruvchi **takroran murojaat qilish huquqiga** egadir.



Hujjatlarni **takroran ko'rib chiqishda** oylik pul kompensatsiyasini tayinlaydigan organ tomonidan ariza beruvchiga yozma shaklda **ilgari bayon qilingan e'tirozlar** taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi

Ilgari bayon qilingan e'tirozlar bartaraf etilishini tasdiqlaydigan hujjatlar bilan bog'liq e'tirozlarni taqdim etish bundan mustasno.



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovi summasining miqdori jismoniy shaxslardan yonilg'i iste'moli uchun olinadigan soliq hisobga olinmagan holda har chorakda "O'zbekneftgaz" AJning avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali hisobot davridan oldingi chorakning chakana savdodagi avtomobil benzini (chakana savdoda eng ko'p tarqalgan) muayyan markasining o'rtacha sotish narxidan kelib chiqib, **20 litr avtomobil benzini qiymati** miqdorida Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Oylik pul kompensatsiyasi to'lovini amalga oshirish



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovi ko'rsatib o'tilgan shaxslarning yashash joyi bo'yicha pensiyalar va nafaqalarni tayinlaydigan organlar tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to'lash uchun belgilangan muddatlarda, alohida qaydnomalar bo'yicha tijorat banki yoki boshqa ixtisoslashgan tashkilot orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar vazirligining axborot tizimlaridan olingan avtomototransportning **davriy davlat texnik ko'rikdan o'tganligi to'g'risida tegishli ma'lumotlar mavjud bo'lmaganda** oylik pul kompensatsiyasi to'lash oylik pul kompensatsiya to'lovini tayinlaydigan organlar tomonidan to'xtatib qo'yiladi.



Oylik pul kompensatsiyasini to'lash avtomototransport egasi tomonidan ariza berilganidan so'ng Ichki ishlar vazirligining axborot tizimlaridan olingan ma'lumotga asosan **avtomototransport vositasining texnik ko'rikdan o'tgan kunidan boshlab** tiklanadi.



Oylik pul kompensatsiyasi to'lovi tayinlangan avtomototransport vositasi egalari oylik pul kompensatsiyasi to'lovini tayinlaydigan organlarni davriy davlat texnik ko'rigidan o'tilgandan keyin **10 kun mobaynida** xabardor qilishi shart.

Agar davriy texnik ko'rikdan o'tganlik to'g'risidagi hujjat 2 haftadan ortiq kechikib taqdim etilgan taqdirda



Tegishli davr uchun oylik pul kompensatsiyasi to'lanmaydi.

📌 Avtomototransport vositasi egasi oylik pul kompensatsiya to'lovini tayinlaydigan organga:

- ✓ yashash joyi o'zgarganligi;
- ✓ avtomototransport vositasi sotilganligi;
- ✓ yo'l harakati xavfsizligi qoidalari buzilganligi uchun haydovchilik guvohnomasidan mahrum etilganligi holatlari to'g'risida xabar berishi shart.

*Oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega bo'lgan avtomototransport vositasi egasi **vafot etgan taqdirda** tegishli bildirishnoma uning qarindoshlari tomonidan taqdim etilishi kerak.*

📌 Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda kompensatsiya to'lash to'xtatiladi.

Ko'rsatib o'tilgan **axborotni yashirgan** va **oylik pul kompensatsiyasini noqonuniy olgan** avtomototransport vositasi egasidan tegishli summa qonunchilikda belgilangan tartibda undirib

*Agar oylik pul kompensatsiyasini asoslanmagan to'lash oylik pul kompensatsiyasini tayinlaydigan yoki **to'laydigan organning xodimi aybi bilan** yuz bergan taqdirda ushbu pul mablag'lari aybdor shaxsning hisobiga qoplanadi.*

📌 Oylik pul kompensatsiyasini to'laydigan vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalari, **har oyning 3-kunidan kechikmay** "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan oylik pul kompensatsiyasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar sonini ko'rsatgan holda keyingi oyga oylik pul kompensatsiyalari summasini to'lash uchun moliyaviy mablag'lar hajmida (tijorat banki yoki boshqa ixtisoslashgan tashkilot xarajatlari hisobga olingan holda) hisob-kitoblar bilan asoslangan ehtiyojga bo'lgan **buyurtmanomani** taqdim etadilar.

📌 "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati **har oyning 10-kunidan kechikmay** oylik pul kompensatsiyasi to'laydigan vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalarining bank hisob raqamlariga oylik pul kompensatsiyasi to'lash uchun moliyaviy mablag'larning zarur miqdorini o'tkazadilar.



Oylik pul kompensatsiyasi olish **huquqiga ega bo'lgan shaxslar reyestri** oylik pul kompensatsiyasi to'laydigan vazirliklar va idoralarning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi va 2 hafta mobaynida har bir kalendar yil choragining **1-kuni holati** bo'yicha "O'zbekneftgaz" AJga taqdim etiladi.



Oylik pul kompensatsiyasi to'laydigan vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalari oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar reyestrlarini topshirish bilan bir vaqtda "O'zbekneftgaz" AJ oldingi yil choragi uchun amalda to'langan **to'lovlar to'g'risida hisobotlar** taqdim etadi.

ILOVALAR

1-ilova

Oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega bo'lgan urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar toifalari

Oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega bo'lgan urush qatnashchilari – 1941–1945-yillardagi urush, boshqa urushlar davrida, shuningdek O'zbekiston Respublikasini **himoya qilishda harakatdagi armiya tarkibiga kirgan** harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar.

Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar	
1	1941-yil 22-iyundan 1954-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrda qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qilish otryadlari tarkibida sobiq SSSR hududida janglarda qatnashgan shaxslar
2	1941–1945-yillardagi urush yillarida partizan otryadlarida va qo'shilmalarida bo'lgan yoxud yashirin ishlar bilan shug'ullangan shaxslar
3	1941–1945-yillardagi urush yillarida harakatdagi armiya tarkibida yoki harbiy harakatlar mintaqalarida xizmatni o'tagan sobiq SSSRning Ichki ishlar vazirligi organlari va Davlat xavfsizligi qo'mitasi organlarining boshliqlar va oddiy askarlar tarkibiga kiruvchi shaxslar
4	1941–1945-yillardagi urush davrida balog'at yoshiga yetgunga qadar polk o'g'li yoki kichik matros sifatida harakatdagi armiya va flotning qismlari va tuzilmalari tarkibida bo'lgan shaxslar

5	1941–1945-yillardagi urush yillarida harbiy harakatlar mintaqalarida temir yo'llarning front yaqinida joylashgan uchastkalarida, mudofaa chizig'i inshootlarida, harbiy-dengiz bazalarida, aerodromlarda va boshqa harbiy obyektlardagi ishlarda qatnashgan ishchilar
6	1941–1945-yillardagi urush yillarida harakatdagi armiya tarkibida ishlagan erkin yollanganlar tarkibidan bo'lgan shaxslar
7	1956-yil 24-oktabrdan 1956-yil 10-noyabrgacha bo'lgan davrda Vengriyadagi jangovar harakatlar davrida ushbu mamlakat hududida bo'lgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar

Oylik pul kompensatsiyasi olish huquqiga ega bo'lgan urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar toifalari

Oylik pul kompensatsiyasini olish huquqiga ega bo'lgan urush nogironlari – 1941–1945-yillardagi urush, boshqa urushlar davrida, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tashda **yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash** yoki **kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan** harbiy xizmatchilar.

Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar	
1	sobiq SSSR va O'zbekiston Respublikasi chegaralarini himoya qilishda yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar
2	1941-yil 22-iyundan 1954-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrda sobiq SSSR hududida harakat qilgan qiruvchi batalonlar, vzvodlar va xalqni himoya qilish otryadlarida bo'lgan davrda yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish sababli nogiron bo'lib qolgan shaxslar
3	front yaqinida joylashgan temir yo'l uchastkalari, mudofaa chizig'i inshootlari, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar va boshqa harbiy obyektlardagi ishlarda qatnashgan hamda 1941–1945-yillardagi urush yillarida harbiy harakatlar mintaqalarida yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish sababli nogiron bo'lib qolgan xodimlar
4	1941–1945-yillardagi urush yillarida partizan otryadlari va qo'shilmalarida yoxud yashirin ishlarda bo'lish

	davrida yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan shaxslar
5	1941–1945-yillardagi urush yillarida harakatdagi armiya tarkibida ishlagan davrda yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan erkin yollanganlar tarkibiga kirgan shaxslar
6	ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy askarlar tarkibiga kiradigan, jangovar harakatlar olib borilgan mamlakatlarda tinchlik o'rnatish kuchlarida qatnashish hamda baynalmilal burchni bajarish bilan bog'liq yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilari
7	ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy askarlar tarkibiga kiradigan, harbiy xizmat majburiyatini bajarish (xizmat vazifasini o'tash) bilan bog'liq yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilari
8	o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan hamda ushbu yig'inlarni o'tash davrida xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yarador, mayib bo'lish, kontuziyaga uchrash yoki kasal bo'lish oqibatida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatga majburlar

[illegible]